



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TAJRIBA- SINOV ISHLARINING SAMARADORLIGI

Abdumalikova Madinabonu
Alimardon qizi

Qo‘qon davlat universiteti Ta‘lim tarbiya nazariyasiva
metodikasi yo‘nalishi 1-kurs magistranti
e-mail: abdumalikovamadina475@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani 5-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 2-“D” va 2-“G” sinflarida olib borildi. Tajriba-sinov ishlari asosan 2-“G” sinfida amalga oshirilib, 2-“D” sinfi nazorat guruhi sifatida jalb etildi. Tadqiqot davomida diagnostik testlar, pedagogik kuzatish, aqliy hujum, muammoli ta‘lim, o‘yin texnologiyalari, STEAM yondashuvi, dizayn fikrlash hamda inquiry-based learning metodlaridan foydalanildi. Tajriba jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoga ijodiy yondashish, original g‘oyalar ishlab chiqish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Yakuniy natijalar dastlabki diagnostika bilan solishtirilganda o‘quvchilarning kreativ fikrlash darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta‘limda interfaol va innovatsion metodlardan kompleks foydalanish samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar

kreativ fikrlash, boshlang‘ich ta‘lim, tajriba-sinov ishlari, nazorat guruhi, diagnostika, aqliy hujum, muammoli ta‘lim, STEAM yondashuvi, dizayn fikrlash, inquiry-based learning, o‘yin texnologiyalari, kreativ rivojlanish, pedagogik innovatsiya, interfaol metodlar, o‘quv faoliyati.

KIRISH

Zamonaviy ta‘lim tizimi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Global ta‘lim tendensiyalari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish, muammoli vaziyatlarga kreativ yondashish va innovatsion g‘oyalar ishlab chiqish muhim kompetensiyalar qatoriga kiradi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida kreativ fikrlashni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaraladi.¹

Ilmiy tadqiqotlarda kreativ fikrlash shaxsning yangi g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yondashish hamda turli yechim variantlarini ishlab chiqish qobiliyati sifatida izohlanadi. Xususan, J. P. Guilford tomonidan ilgari surilgan

¹ Begimqulov U.Sh. Pedagogik innovatsiyalar va ta‘lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – B.118.

divergent tafakkur nazariyasiga ko‘ra, kreativlik ko‘p variantli fikrlash va originallik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u shaxsning intellektual faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.² Shuningdek, E. P. Torrance tadqiqotlarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun maxsus testlar tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarning fikrlash ravonligi, moslashuvchanligi va originalligi asosiy ko‘rsatkich sifatida baholanadi.³

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning yosh xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu davrda obrazli tafakkur, tasavvur va o‘yin faoliyati ustuvor ahamiyatga ega. Shu bois, ta‘lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish, o‘quvchilarni faol subyekt sifatida jalb qilish hamda muammoli vaziyatlar yaratish orqali ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish mumkin. L. S. Vygotskyning ijtimoiy-madaniy nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning bilish faoliyati va kreativ rivojlanishi ijtimoiy muhit va hamkorlik jarayonida shakllanadi.⁴

Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish hamda ularning samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyati, predmeti esa kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayoni belgilandi. Tadqiqot vazifalari sifatida o‘quvchilarning dastlabki kreativ fikrlash darajasini aniqlash, innovatsion metodlar asosida mashg‘ulotlar tashkil etish hamda olingan natijalarni tahlil qilish belgilab olindi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA NAZARIY ASOSLAR

Kreativ fikrlash zamonaviy ta‘lim jarayonida shaxsning yangilik yaratishga yo‘naltirilgan muhim qobiliyatlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Ilmiy manbalarda u muammolarga noodatiy yondashish, original g‘oyalar ilgari surish va mavjud bilimlarni yangicha uyg‘unlashtirish jarayoni sifatida izohlanadi. Teresa M. Amabile tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvga ko‘ra, kreativlik shaxsning bilim darajasi, ijodiy fikrlash ko‘nikmalari hamda ichki motivatsiyasining o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladi.⁵ Ushbu qarash kreativ fikrlashni rivojlantirishda motivatsion omillarning ham muhimligini ko‘rsatadi.

Ta‘lim jarayonida kreativlikni shakllantirish konstruktivistik yondashuv bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, Jerome Bruner nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi bilimni faol ravishda o‘zlashtiradi va uni mustaqil ravishda qayta quradi.⁶ Bu jarayon o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Shu bilan birga, Howard Gardner tomonidan ilgari surilgan ko‘p qirrali intellekt nazariyasi o‘quvchilarning turli qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kreativlikni kengaytirish mumkinligini asoslaydi.⁷

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda tajribaga asoslangan ta‘lim ham muhim ahamiyatga ega. John Dewey ta‘limni amaliy faoliyat bilan bog‘lab, o‘quvchilarning faol ishtiroki orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish mumkinligini ta‘kidlaydi.⁸ Shu

² Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – B.151.

³ Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington: Personnel Press, 1974. – B.33.

⁴ Vygotsky L.S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – B.86.

⁵ Amabile T.M. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996. – B.112.

⁶ Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960. –B. 45.

⁷ Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – B.78.

⁸ Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. –B. 62.

asosda, boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlar, amaliy mashg'ulotlar va o'quvchining mustaqil izlanishini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik muhit kreativ fikrlashni shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot Farg'ona viloyati Dang'ara tumani 5-son umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinflarida olib borildi. Tajriba-sinov ishlari 2-"G" sinfda amalga oshirilib, mazkur sinf tajriba guruhi sifatida tanlandi. 2-"D" sinf esa nazorat guruhi sifatida jalb etildi. Tadqiqotda jami 36 nafar o'quvchi ishtirok etdi (2-"G" – 19 nafar, 2-"D" – 17 nafar).

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash darajasini aniqlash maqsadida diagnostik testlar, pedagogik kuzatish hamda interfaol metodlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanildi. Kreativ fikrlash darajasi "yuqori", "o'rta" va "past" mezonlari asosida baholandi. Tajriba jarayonida aqliy hujum, muammoli ta'lim, o'yin texnologiyalari, STEAM yondashuvi, dizayn fikrlash hamda inquiry-based learning metodlari qo'llanildi.

Daraja	O'quvchilar soni	Foiz (%)
Yuqori	2	11.8%
O'rta	6	35.3%
Past	9	52.9%
Jami	17	100%

1-jadval. Nazorat guruhi (2-"D" sinf) o'quvchilarining kreativ fikrlash darajasi

Boshlang'ich natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, nazorat guruhida o'quvchilarning aksariyati past darajada ekanligi aniqlandi. Bu esa o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligini bildiradi.

Daraja	O'quvchilar soni	Foiz (%)
Yuqori	6	31.6%
O'rta	5	26.3%
Past	8	42.1%
Jami	19	100%

2-jadval. Tajriba guruhi (2-"G" sinf) o'quvchilarining kreativ fikrlash darajasi

Tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan biroz yuqoriroq ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Biroq past darajadagi o'quvchilar ulushi yuqori bo'lib qolayotganligi kreativ fikrlashni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Daraja	O'quvchilar soni	Foiz (%)
Yuqori	10	52.6%
O'rta	4	21.1%
Past	5	26.3%
Jami	19	100%

3-jadval. Tajriba guruhi (2-"G" sinf) o'quvchilarining yakuniy natijalari

Yakuniy natijalar tahlili tajriba davomida qo'llanilgan metodlarning samaradorligini yaqqol ko'rsatdi. Xususan, yuqori darajadagi o'quvchilar soni sezilarli darajada oshgan, past darajadagi o'quvchilar esa kamaygan. Bu esa kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan interfaol va innovatsion yondashuvlar ijobiy natija berganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot jarayoni shuni ko'rsatdiki, kreativ fikrlashni rivojlantirish tizimli yondashuvni talab etadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, muammoli vaziyatlar yaratish va interfaol metodlardan foydalanish orqali ularning ijodiy salohiyatini samarali rivojlantirish mumkin. Tajriba natijalari boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlarni qo'llash yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot doirasida boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar samaradorligi tahliliy yondashuv asosida baholandi. Jarayonda muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat hamda integrativ (STEAM elementlari asosidagi) dars shakllari qo'llanilgan sinflar natijalari an'anaviy metodlar ustun bo'lgan sinflar ko'rsatkichlari bilan qiyoslandi.

Muhokama jarayonida aniqlangan muhim jihatlardan biri — kreativ fikrlashni rivojlantirish faqat metod tanlash bilan cheklanib qolmasligi, balki pedagogik muhitga ham bevosita bog'liqligidir. O'qituvchi tomonidan yaratilgan erkin, qo'llab-quvvatlovchi va xatolardan qo'rqmay fikr bildirishga undovchi muhit o'quvchilarning ijodiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Aksincha, qat'iy nazorat va yagona "to'g'ri javob"ga yo'naltirilgan yondashuv kreativ fikrlashni cheklab qo'yishi mumkin. Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar muammoni kompleks tarzda tahlil qilishga moyil bo'ladi. Fanlararo bog'liqlik asosida berilgan topshiriqlar o'quvchilarning bilimlarini yangi vaziyatlarga moslashtirish qobiliyatini rivojlantirib, ularning tahliliy va ijodiy tafakkurini uyg'unlashtiradi. Olib borilgan tahlillar kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlarning boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning mustaqil fikrlash, muammoni hal etish va innovatsion g'oyalar ishlab chiqish qobiliyatlarini ham izchil rivojlantiradi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Tajriba-sinov ishlari davomida qo'llanilgan interfaol metodlar, muammoli ta'lim, STEAM yondashuvi hamda dizayn fikrlash elementlari o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi hisoblangan 2-"G" sinfda kreativ fikrlash darajasi sezilarli darajada oshgan. Xususan, yuqori darajadagi o'quvchilar sonining ortishi va past darajadagi o'quvchilar ulushining kamayishi qo'llanilgan metodlarning samaradorligini isbotlaydi. Bu esa kreativ fikrlashni rivojlantirishda tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va innovatsion yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot davomida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoga ijodiy yondashish, g'oya ilgari surish va qaror qabul qilish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Bu esa

boshlang'ich ta'lim bosqichida kreativ fikrlashni shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoit mavjud ekanligini anglatadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- boshlang'ich ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun interfaol metodlardan tizimli va muntazam foydalanish zarur;
- dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish va o'quvchilarni mustaqil yechim topishga yo'naltirish muhim;
- STEAM yondashuvi va dizayn fikrlash elementlarini dars mazmuniga integratsiya qilish o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshiradi;
- o'yin texnologiyalari orqali o'quvchilarning qiziqishi va faolligini kuchaytirish maqsadga muvofiq;
- o'qituvchilar uchun kreativ metodlardan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar va treninglar tashkil etish lozim;
- o'quvchilarning kreativ fikrlash darajasini muntazam diagnostika qilish va natijalar asosida individual yondashuvni qo'llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amabile T.M. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge: Harvard University Press, 1960.
4. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
5. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
6. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
7. Karimova V.M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
8. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950.
9. Sternberg R.J. Successful Intelligence. – New York: Simon & Schuster, 1996.
10. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington: Personnel Press, 1974.
11. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.